

## **HAYKALTAROSHLIK SAN'ATI. DONATELLO: UYG'ONISH DAVRINING YETUK HAYKALTAROSHI**

**Abdujabborova Maftuna Xamrali qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san'at  
mutaxassisligi 101-guruh magistranti*

*E-mail: [msalimova124@gmail.com](mailto:msalimova124@gmail.com)*

*+998937333715*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Haykaltaroshlik san'ati rivojlanish jarayoni hamda uyg'onish davrining buyuk haykaltaroshlaridan biri – Donatelloning bu sohadagi o'rni keng yoritilib tahlil qilinadi. Muallif uning uslubi, shakl va ifodaviylik tamoyillariga qo'shgan hissasini tadqiq qilib, uning eng mashhur asarlari orqali ijodiy merosini ochib beradi. Donatello nafaqat o'zining texnik mahorati bilan, shu bilan birga o'z zamonasining ruhiy va estetik tamoyillarini o'zida aks ettira olgan ijodkor sifatida baholanadi. Maqolada san'atshunoslik nuqtayi nazaridan Donatello haykaltaroshligining uyg'onish davri san'ati taraqqiyotiga ta'siri va qoldirgan meroslari ham tahlil qilinadi.

### **Kirish**

Haykaltaroshlik inson tafakkuri va estetik qarashlarining yuksak namoyondasi bo'lib, u turli materiallar orqali uch o'lchovli san'at asarlarini yaratish jarayonini o'z ichiga oladi. Ushbu san'at turi insoniyat tarixining turli bosqichlarida o'ziga xos shakl va mazmun kasb etgan bo'lib, u nafaqat badiiy, balki ijtimoiy, diniy manaviy va madaniy ahamiyatga ham ega. Haykaltarosh esa ushbu ijodiy jarayonda markaziy figura bo'lib, u o'z tasavvurlarini moddiy muhitda ifoda ettiradi.

Haykaltaroshlik san'ati insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, tasviriy san'atda alohida o'rin kasb etgan shu bilan birga turli davrlarda o'ziga xos uslub va tamoyillarga ega bo'lgan. Ayniqsa, Uyg'onish davri san'ati yevropalik mohir ustalar tomonidan qayta tiklangan klassik an'analarning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Bu davrda haykaltaroshlik san'ati realizm, tabiiylik va tafsilotlarga e'tibor qaratilishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

### **Haykaltaroshlik san'atining madaniy ahamiyati**

**Uyg'onish davri** (Renessans) — XIV asr oxiri va XV–XVI asrlarda Yevropada yuz bergan ilm-fan, madaniyat va san'atning jonlanish davridir. Bu davrda inson, uning aqliy va estetik imkoniyatlari markazga chiqdi. Antik davr san'atiga qaytish, realizm, individualizm va tafakkur erkinligi asosiy tamoyillar sifatida shakllandi.

#### Asosiy xususiyatlari:

- **Antik madaniyatga murojaat:** Rim va Yunoniston san'atidan ilhom olish.
- **Insonni markazga qo'yish:** Haykal va rasmlarda inson tana tuzilishi aniq va tabiiy tasvirlanadi.
- **Perspektiva:** Ufq chizig'i va chuqurlikni aks ettirish texnikasi joriy qilindi.
- **Realizm:** Hayotga yaqin va hissiyotga boy tasvirlar san'atga kirdi.<sup>115</sup>

Haykaltaroshlik san'ati turli davrlarda o'ziga xos tarixiy, diniy va falsafiy ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Qadimgi sivilizatsiyalarda haykallar diniy va siyosiy ramz sifatida xizmat qilgan. Masalan, Misr fir'avnlarining ulkan haykallari ularning qudratini aks ettirgan bo'lsa, Yunoniston haykaltaroshlari inson go'zalligini idealizatsiya qilishga intilgan. Bugungi kunda haykaltaroshlik urbanizatsiya jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Jamoat joylaridagi haykallar shahar muhitining badiiy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, zamonaviy haykaltaroshlik san'ati an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda eksperimental usullarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, interfaol va multimedya texnologiyalaridan foydalanish orqali yangi shakllarni izlashga yo'naltirilgan.

#### Donatello: Uyg'onish davrining yetuk haykaltaroshi

Haykaltaroshlik san'ati insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, turli davrlarda o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Uyg'onish davri san'ati, xususan, haykaltaroshlik, inson tabiatini va go'zalligini aks ettirish borasida inqilobiy yutuqlarga erishgan. Ushbu davrning eng nufuzli san'atkorlaridan biri Donatello bo'lib, u haykaltaroshlikda realizm, harakat va ifodaviylik tamoyillarini o'rnatgan. Uning ijodi haykaltaroshlik tarixida chuqr iz qoldirib, keyingi avlod san'atkorlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

#### Donatelloning Uyg'onish davridagi o'rni:

**Donatello (Donato di Niccolò di Betto Bardi)** — Uyg'onish davrining buyuk haykaltaroshi bo'lib, san'atda realizm va ekspressivlikni chuqr ifodalagan. U:

- **Inson hissiyotini** haykallarga etkazish orqali san'atni yanada jonli qildi;

<sup>115</sup> <https://milliycha.uz/uygonish-davri-renessans/>



- **Kontraposto** (tana og'irligini bir oyoqqa o'tkazish) uslubini mukammallashtirdi;
- **Rilievo schiacciato** (yassi relyef) texnikasi yordamida haykalga chuqurlik bag'ishladi.

***Mashhur asarlari:***

- **Dovud** (bronza): Antik shaklga qaytishning ramzi;
- **Feast of Herod**: Kompozitsion murakkablik va dramatizm namunasi.

Donatello o'z asarlari orqali Uyg'onish davri san'atida insonning ruhiy holati va jamiyatdagi o'rnini chuqur aks ettirdi. Uning yondashuvi keyingi rassom va haykaltaroshlar — Michelangelo, Verrocchio, Leonardo kabi san'atkorlarga kuchli ta'sir ko'rsatdi.<sup>116</sup>

**Donatelloning hayoti va ijodiy shakllanishi**

Donatello (to'liq ismi Donato di Niccolò di Betto Bardi) 1386-yilda Florensiyada dunyoga kelgan. Yoshligida u me'morchilik va haykaltaroshlik bo'yicha bilim olish uchun mashhur ustaxonalar va san'at maktablarida tahsil olgan. Uning san'atga bo'lgan qiziqishi va iqtidori erta namoyon bo'lib, u Brunelleskiy va Ghiberti kabi mashhur ustalar qo'lida ta'lim olgan. Donatelloning ijodiy faoliyati XIV asr oxiri va XV asr boshlarida shakllangan bo'lib, uning ijodi klassik an'analarga asoslangan bo'lsa-da, u o'z asarlarida chuqur psixologik ifodaviylik va harakatni yuksak mahorat bilan aks ettirgan. Donatello yaratgan haykallar shaklning nafisligi, tabiiyligi va chuqur ma'no-mazmuni bilan ajralib turadi. Uning ijodi nafaqat Florensiya san'at maktabining rivojlanishiga, bundan tashqari butun Yevropa san'atining keying madaniy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu davr Uyg'onish davrining dastlabki bosqichiga to'g'ri keladi. Uning ishlarida antik san'at an'analari bilan yangi, realistik yondashuv uyg'unlashgan bo'lib u haykallarida inson xarakterini, hissiyotlarini va tabiiy holatini aniq aks ettirishga intilgan.

**Donatelloning san'at tarixidagi o'rni.**

Donatelloning ijodi haykaltaroshlik san'atiga inqilobiy o'zgarishlar olib keldi. Uning asarlari keyingi avlod san'atkorlariga, jumladan, Mikelanjelo, Leonardo da Vinci va boshqa Uyg'onish davri ustalariga katta ta'sir ko'rsatdi va ularning ijodoga ham katta hissa qo'shdi. Uning haykallarida inson tabiatini va psixologiyasi chuqur aks ettirilgan bo'lib, bu uslub keyingi asrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

<sup>116</sup> <https://www.britannica.com/biography/Donatello>

**Donatelloning uslubi va innovatsion yondashuvi**

Donatello haykaltaroshlik san'atiga bir qator yangiliklarni olib kirgan. U inson tanasining tabiiy harakatini aks ettirish uchun kontraposto usulidan mahurat bilan foydalangan. Bu usul haykallarni statik emas, balki jonli va dinamik ko'rinishda tasvirlash imkonini ko'rasatib bergen. Shuningdek, Donatello perspektiv relyef uslubini rivojlaning, bu uslub haykallarning chuqurlik hissini oshirishga yordam bergen. Bu texnika san'atning ikki va uch o'lchovli ko'rinishini uyg'unlashtirishga xizmat qilgan. U haykallarida inson anatomiyasini mukammal o'rzanib, ularga tabiiy harakat, plastika dinamika holatlarini va hissiyot bag'ishlagan.

**Donatelloning mashhur asarlari**

Donatelloning ijodi haykaltaroshlikning turli janrlarini qamrab oladi. Uning eng mashhur asarlari quyidagilardan iborat:


**1. "Dovud" (bronza, 1440-yillar)**

Bu haykal Donatelloning eng mashhur asarlaridan biri bo'lib, u ilk bor yalang'och inson tanasini bronzada ifodalagan haykaltarosh hisoblanadi. Ushbu asar kontraposto usulida ishlangan bo'lib, haykal tabiiy harakat va nafislikka ega. Dovud haykali yosh yigit sifatida tasvirlangan bo'lib, u Goliat ustidan qozonilgan g'alabani ramziy aks ettiradi.




## 2. "Gattamelata" (1453)

Bu haykal Uyg'onish davri haykaltaroshligi uchun juda muhim bo'lib, unda ilk bor haykal ustiga o'rnatilgan otliq jasoratli sarkarda tasvirlangan. "Gattamelata" haykali realistik va monumental bo'lib, ot va chavandozning tabiiy harakati va salobati aniq aks ettirilgan. Italiyalik haykaltarosh Donatello o'n yil davomida Evropadagi barcha keyingi otliq haykallarning prototipi ustida ishladi. 1453 yilga kelib, usta bronzadan Gattamelata kondotiyeriga ulug'vor yodgorlik qurdi: sakkiz metrli poydevorda uzunligi uch metrdan oshiq kompozitsiya ko'tarildi. Venetsiyalik yollanma qo'mondoni jasorat va ayyorlik kabi fazilatlari tufayli mashhur bo'ldi. Uning qiyofasi ulug'vor va oljanob otda o'tiradi, harbiy boshliqlarga xos qat'iyat va qat'iyatlilik.



## 3. "Avliyo Georgiy" (1417–)

Bu haykal Florensiyadagi Orsanmikele cherkovida joylashgan bo'lib, unda jasur va qudratli avliyo Georgiy qiyofasi aks ettirilgan. Avliyo Jorj haykali buyuk italyan haykaltaroshi Donatello tomonidan 1415-1416 yillar oralig'ida yaratilgan. O'sha davr odatiga ko'ra, haykal Or San Mishel cherkovining tashqi uyasiga o'z homiysi avliyosining haykalini o'rnatishni rejalashtirgan qurolsozlar gildiyasi tomonidan buyurtma qilingan va pul to'lagan. Yaratilgan haykal o'zining ajoyibligi bilan barcha kutilganlardan oshib ketdi. Sankt-Jorj, insonparvarlik,adolat va inson qalbining pokligi g'oyalarini himoya qilish uchun jangga kirgan barcha jangchilarining homiysi. Donatello o'ziga oyoqqa turib, tiniq nigohini uzoq kelajakka qaratgan yigitni yaratishga imkon berdi. Avliyo Jorj butun xristian dinining ramzi bo'lgan xoch tasvirlangan katta qalqonga suyanadi. U tinchlik elchisi emas - u o'zining



qat'iyatliligi, Xudoga ishonishi, o'z kuchi va unga ergashishga tayyor bo'lgan odamlari bilan ajralib turadigan jangchi. Haykal qahramonlik va himoya ramzi sifatida yaratilgan bo'lib, Donatelloning realizmga bo'lgan intilishining yorqin namunasi hisoblanadi.



#### 4. "Magdalena" (1455)

Bu yog'ochdan ishlangan haykal avvalgi asarlardan tubdan farq qiladi. Unda Donatello go'zallikdan ko'ra insonning ichki ruhiy holatini aks ettirishga e'tibor qaratgan. Magdalena qarigan, azob chekkan va hayotning mashaqqatlarini boshdan kechirgan ayol sifatida tasvirlangan bo'lib, unda insoniyatning ichki kechinmalari chuqur ochib berilgan.

**Xulosa:** Haykaltaroshlik san'ati inson tafakkurining moddiy ifodasi bo'lib, u turli tarixiy va madaniy bosqichlarda o'ziga xos shakl va mazmun kasb etib kelgan. Haykaltarosh esa ushbu ijodiy jarayonning markazida turib, san'at orqali o'zining ichki dunyosini, davr ruhi va estetik qarashlarini aks ettiradi. Zamonaviy haykaltaroshlikning rivojlanishi yangi texnologiyalar va badiiy g'oyalar bilan boyib bormoqda, bu esa san'atning kelajakdagi yo'nalishlarini yanada kengaytirish imkonini bermoqda. Hozirgi kunda haykaltaroshlik urbanizatsiya jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Jamoat joylaridagi haykallar shahar muhitining badiiy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, zamonaviy haykaltaroshlik san'ati an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda eksperimental usullarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, interfaol va multimedya texnologiyalaridan foydalanish orqali yangi shakllarni izlashga yo'naltirilgan. Bugungi kunda haykaltaroshlik san'ati tez sur'atlar bilan rivojlanib, zamonaviy jamiyatning estetik, ijtimoiy va texnologik ehtiyojlariga moslashib bormoqda. An'anaviy yondashuvlardan tashqari, yangi materiallar, interaktiv uslublar va kontseptual g'oyalar orqali haykaltaroshlik inson tafakkuri va hissiyotlarini chuqur ifodalash imkonini bermoqda. Ko'chalar, galereyalar, ochiq maydonlar haykaltaroshlik uchun nafaqat namoyish makoni, balki jamiyat bilan muloqot maydoniga aylanmoqda. Bu san'at turi orqali nafaqat go'zallikni, balki zamonaviy insonning ruhiy holati,

dunyoqarashi va muammolari ham ifoda etiladi. Shunday qilib, hozirgi kunda haykaltaroshlik nafaqat ko‘rish zavqini baxsh etuvchi, balki insonni tafakkurga chorlovchi, ilhomlantiruvchi va jamiyatni o‘zgartirishga chorlovchi kuchli vositaga aylangan.

Haykaltaroshlik san’ati inson tafakkurining moddiy ifodasi bo‘lib, u turli tarixiy va madaniy bosqichlarda o‘ziga xos shakl va mazmun kasb etib kelgan. Haykaltarosh esa ushbu ijodiy jarayonning markazida turib, san’at orqali o‘zining va jamiyatning ichki dunyosini, muayyan davr ruhi va estetik dunyoqarashlarini aks ettiradi. Zamonaviy haykaltaroshlikning rivojlanishi yangi texnologiyalar va badiiy g‘oyalar bilan yanada boyib bormoqda, bu esa san’atning kelajakdagi yo‘nalishlarini yanada kengaytirish imkonini bermoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Uyg‘onish davri san’ati:** Milliycha.uz va Azkurs.org saytlaridagi maqolalar Uyg‘onish davrining umumiy konteksti va Donatelloning o‘rni haqida ma’lumot beradi.

2. Britannica ensiklopediyasi: Donatelloning hayoti, ijodiy faoliyati va mashhur asarlari haqida keng ma’lumot beradi. Ayniqsa, uning “Dovud” haykali va “Feast of Herod” rel’efi haqida batafsil tahlil keltirilgan.

3. AncientScholar: Donatelloning haykaltaroshlikdagi innovatsiyalari. Donatelloning kontraposto, rilievo schiacciato (yassi relyef) kabi texnikalarni qanday joriy qilgani va bu uslublarning Uyg‘onish davri san’atiga ta’siri haqida tahliliy maqola.

4. World History Encyclopedia: Donatelloning merosi. Donatelloning klassik san’atga bo‘lgan qiziqishi, uning haykallaridagi realizm va ekspressivlik, shuningdek, boshqa rassomlarga ta’siri haqida ma’lumotlar mavjud.

5. Art Movements: Donatelloning Uyg‘onish davriga ta’siri. Donatelloning innovatsion yondashuvlari, haykaltaroshlikdagi texnikasi va uning san’at tarixidagi o‘rni haqida chuqur tahlil.

6. The Arts Society: Donatello va Uyg‘onish davri haykaltaroshligi. Donatelloning ijodi va uning Florensiyadagi faoliyati haqida ma’lumotlar.